

Тажриба ва назорат гуруҳидаги сигирлар сут маҳсулдорлиги ўртача 15,6-16,0 литрни ташкил этган бўлса, тажрибаларнинг охирига келиб тажриба гуруҳидаги сигирларда сут маҳсулдорлиги ўртача 18,2 л, назорат гуруҳида эса 16,0 литрни ташкил этди.

Хулоса. Соғин сигирлар рационига кўшимча равишда минералли-витаминли ЛПП - 2 (лечебно профилактический премикс) профилактик препаратидан бир кунда бир бошга 50 граммдан омихта емларга аралаштириб 60 кун давомида берилиши сигирларда модда алмашинуви даражасини меъёрлар даражасида яхшилади, улар организмида витамин ва минераллар алмашинувини меъёрлаштиради ва сут маҳсулдолигини ўртача 2,2 литргача кўпайтиради.

QORAMOLLARDA AKTINOMIKOZ KASALLIGINI ZAMONAVIY USULLAR BILAN DAVOLASH

**S.A.Xaydarova – magistratura talabasi,
B.D.Narziev – ilmiy rahbar, dotsent**

Mavzuning dolzarbligi. Yirik shoxli hayvonlar aktinomikozi surunkali kechadigan zamburug'li infeksiya kasallik bo'lib, yumshoq to'qima va suyaklarda xususiy granulyoma (aktinomikoma) hosil bo'lishi bilan kechadi (A.D.Belov, M.V.Plaxotin, B.A. Bashkirov va boshq., 1990).

O'zbekistonda aktinomikoz kasalligi asosan 1961 yildan boshlab rasman qayd qilina boshlangan. Ammo Samarqand QXI, sobiq "Xirurgiya va farmakologiya" kafedrasida bu kasallik 1942 yildan boshlab operativ usul bilan davolanib keladi.

Bu kasallikni oldini olish uchun hayvonlarni sifatli oziqlantirish, veterinariya – sanitariya qoidalariga amal qilish borasida ancha ishlar qilingan. Ammo bu sohada hali ham nuqsonlar mavjud. Shuning uchun bu kasallik ko'p uchraydi va xo'jaliklarga katta iqtisodiy zarar keltiradi hamda veterinariya mutaxassislarini mazkur kasallikka qarshi kurashishda katta e'tiborni jalb qilishga majbur qiladi (B.S.Semenov, A.V.Lebedev, 2001).

Shularni inobatga olib, biz o'z tajribalarimizda bu kasallikni samarali davolash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishni maqsad qilib oldik.

Tadqiqot natijalari. Zamburug'lar odam va hayvonlar organizmiga salbiy ta'sir qilib, teri va chuqurroq joylashgan to'qimalar, o'pka, ko'zlarni zararlaydi.

Aktinomikozni *A. Bovis* va *a. Israelii* kabi qo'zg'atuvchilardan tashqari boshqa fermentativ aktinomitsetlar chaqiradi. Ammo *Propionibacterium* yoki *Bifidobacteriumlar* kabi qo'zg'atuvchilar ham aktinomikozli jarayonni chaqirishi mumkin.

Aktinomikozli o'choqdan aerobli mikrofloraning o'nib chiqishi 85,7% ni tashkil qiladi. Mikroblar tarkibida stafilokokklar (59,8%) va ichak tayoqchasi (16,9%) ko'proq uchraydi.

Shunday qilib, "aktinomikoz" termini alohida bir qo'zg'atuvchi chaqiradigan kasallik bo'lmay, balki polietiologik yallig'lanish sindromidir. Shuning uchun bu guruhga kiruvchi kasalliklarni "aktinomikozlar" deb atash to'g'ri bo'ladi.

D.Jukov (2009) ta'qidlashicha, aktinomikoz qo'zg'atuvchisi jarohatda ko'payib atrof to'qimalarga o'sib kiradi, toksin va antigenlarni ajratadi. Natijada uning atrofida kapsula hosil bo'lib, ichida yiring to'planadi. Zamburug' limfa tomirlari orqali suyak to'qimasiga va ichki a'zolariga tarqaladi.

R.G.Jajgaliyev, A.N.Lebedev, V.S.Avdeyenko (2010) bergan ma'lumotlari bo'yicha, binolar ichidagi havoda mavjud shartli patogen mikrofloraning davolovchi preparatlarga nisbatdan sezuvchanligini tekshirganda quyidagilar aniqlandi: natriy benzoati (31,6 mm – 20,3 mm), makrolid antibiotiklar (24,7 mm – 20,9 mm) va tilozin antibiotigi (27,8 mm – 21,4 mm). Antimikozli ta'sirga 4-xlorli ammoniy tuzlari (25,3 mm – 20,8 mm) ega.

A.G.Nejdanov (1994) ma'lumoti bo'yicha, hayvonlarning butun organizmidagi mikroflorani bostirish maqsadida nitrofuran, sulfanilamid va antibiotik preparatlari qo'llanadi. Preparatlar eritma, emulsiya shaklida tayyorlanadi, ammo ular hamma vaqtda ham yaxshi natija bermaydi.

Aktinomikozning dastlabki bosqichlarida davolash yaxshi samara beradi. Jag‘-yuz aktinomikozida til Lyugol eritmasi va glitserin bilan ishlanadi. Bu davrda vena orqali yod preparatlari (yod-1 g, kaliyli yod-2 g, distillangan suv-500 ml) qo‘llanadi.

Aktinomikozni davolashda immunomodulyator – aktinolizat 40 yildan ziyod vaqt mobaynida qo‘llanib kelmoqda. Bu preparat o‘z – o‘zidan lizisga uchraydigan aktinomitsetlar kultural suyuqligining yangi tayyorlangan, stabilizatsiya qilingan filtrati bo‘lib, organizm uchun tabiiydir. Kuchli immunomodulinlovchi ta’siri, fagotsitoz stimulyatsiyasi, yallig‘lanishni pasaytiruvchi xususiyatlari 4 ming kasalni sinaganda aniqlandi. Preparat og‘ir surunkali yiringli infeksiya, aktinomikoz, teri, teri osti kletchatkasi, shilliq pardalarning yiringli kasalliklari hamda mikrobl ekzema, trofik yaralar, yotoq yara, gidradenit, uretrit, vulvovaginit, paraproktitlarda yaxshi samara beradi.

O.I.Yeliseyeva (2004) ta’qidlashicha, immunokompetent hujayralarning funksiyasi va aktivligini boshqaradigan preparatlar kelib chiqishi va olinadigan manba bo‘yicha har xil bo‘ladi. Amaliy chorvachilik sharoitida mikrobl (pirogenal, prodigiozan, bio-stim, ribav, bronxomunal), hayvonot (timalin, T-aktivin, xitozan, plasenta preparati, neogestol, biostimulgin), o‘simlik (estifan, bioinfuzin, erakond, spirustim), sintetik (levomizol, timogen, immunofan, poludan) vositalar qo‘llanadi.

Ayrim mualliflar kombinatsiyalashtirilgan immunomodulyatorlar – pnevmonin, gemovit – plyus (D.V.Pchel’nikov, V.I.Dor’ojkin, V.A.Babich, 2002), antimutogenlar – tokoferon, askorbin kislotasi, selen preparatlari (V.D.Sokolov, N.L.Andreyeva, i dr., 2002), gomeopatik vositalar – propolan – edas, A-V1 (N.L.Andreyeva, 2003) yiringli – nekrotik jarayonlarni davolashda yuqori ta’sir samarasini ko‘rsatadi.

Hayvon organizmida laktoferrin, lizotsim, immunoglobulinlar va interferon miqdorini ko‘paytirish uchun probiotiklar (laktobifid, streptobifid, subalin) immunoprotiotiklar (baktoneotim, immunobak, vetom-3) qo‘llanishi mumkin. Zamonaviy vitaminli va mineral polikomponentli preparatlar: multivitamin, eleovit, tetrogidrovit, se-dimin, Fe, Zn, Mn, Cu, Co, Se mikroelementlarning xelatli birikmalari, ayniqsa ularning etilen-diamindiyantar kislota bilan komplekslari almashinish jarayonlarni stimulyatsiya qiladi va hayotiy potensialni ko‘chaytiradi (I.I.Usachev, K.I.Usachev va boshq. 2005).

Immunomodulyatorlar, vitamin-mineral vositalar, probiotiklar va adaptogenlar (timogen, vilon) gipotrofik hayvonlarning hayotiyiligini oshiradi (V.X. Xavison, I.M. Kvetnoy, I.P. Ashmarin, 2002).

Nospesifik stimullovchi terapiyaga organizmning himoya, trofik va plastik fiziologik funksiyalarini yaxshilovchi barcha davolash usullari kiradi.

Biologik stimulyatorlar yallig‘lanish, degenerativ va atrofik jarayonlarda davolash uchun qo‘llanadi. Eng ko‘p in’yeksiya qilinadigan suyuq to‘qimali preparatlar, ichirish va implantatsiya uchun quruq stimulyatorlar: (embrionlardan, taloqdan, jigardan va buyrak usti bezidan tayyorlangan preparatlar), Dorogovning antiseptik – stimulyatori, SJK, hayvonlarning konservatsiya qilingan qoni va uning ekstrakti (DZK preparati), atsidofil bul’on kulturasi (ABK), propion – atsidofil bul’on kulturasi (PABK).

G.A. Nozdrin va boshq. (2003) ishlab chiqqan tavsiyalarda yangi probiotik preparat – vetomginga farmakologik tavsif berib, uni yiringli – nekrotik jarayonlarda, jumladan aktinomikozda profilaktik va terapevtik maqsadda ishlatilish sxemasini beradi.

Barcha to‘qimali preparatlar yuqori terapevtik samaraga ega bo‘lib, organizmning patogen omillariga rezistentligini oshiradi. Biologik aktiv moddalar turli fermentlarning energetik darajasini oshiradi, hayvon organizmi metabolizmiga ta’sir qiladi.

Xulosalar.

1. Yirik shoxli hayvonlar aktinomikozini surunkali kechadigan kasallik bo‘lib, yumshoq to‘qima va suyaklarda xususiy granulyoma (aktinomikoma) hosil bo‘lishi bilan xarakterlanadi.
2. Aktinomikozning asosiy qo‘zg‘atuvchisi – aktinomitsetlarga oid nursimon zamburug‘.
3. Aktinomikozda boshqa yiringli – septik jarayonlarga nisbatan mikroorganizmlarning antibiotiklarga nisbatan rezistentligi yuqoriroq bo‘ladi.

4. Immunomodulyatorlar ta'sir va immun tizimining dastlabki holati orasida bog'liqlik mavjud.

5. Organizmda kechadigan turli og'ir patologiyalarda kombinatsiyalashtirilgan immunomodulyatorlar, selen preparatlari, gomeopatik vositalar yuqori ijobiy ta'sir samarasini ko'rsatadi.

6. Barcha to'qimali preparatlar yuqori terapevtik samaraga ega bo'lib, organizmning patogen omillariga rezistentligini oshiradi.

КОРАМОЛЛАРДА КЕРАТОКОНЪЮНКТИВИТЛАР

М.Н.Умарова – талаба, Х.Б.Ниёзов – доцент, С.Х.Яхшиева – ассистент

Аннотация. Кератоконъюнктивит касаллигининг ривожланишига организм резистентлигининг пасайиши, механик шикастлар, паразит личинкалари, кўриш аъзоларга кимёвий моддалар, физикавий омиллар таъсири сабаб бўлади.

Калит сўзлар: Телязиоз, риккециоз, йирингли панофтальмит, кератоконъюнктивит, анемия, гемоспоридиоз, куйдирги, иридоциклит, сепсис.

Кўз аъзоси кўриш орган сифатида ҳайвон организмида катта аҳамиятга эга, чунки кўз ташқи муҳит анализатори бўлиб ҳисобланади. Кўзлар ҳайвонларга атроф муҳитни эркин англашга, озиқа топишга, ҳаракатланишга, ўзини пода ичида ҳамда йирткич ҳайвонлардан ва шикастловчи омиллардан ҳимоя қилишга ёрдам беради. Айрим ҳолларда эса, кўз касалликлари яъни йирингли панофтальмитда организмда сепсиснинг ривожланиши ҳайвон ўлимига сабаб бўлиши мумкин. Ёппасига учрайдиган кўз касалликлари (телязиоз, инфекция ва бошқ) қорамолчиликка ихтисослашган фермер хўжаликларида катта иқтисодий зарар келтиради, кератоконъюнктивитлар бир ёки иккала кўзнинг тўлиқ кўр бўлишига олиб келади, натижада ёш ҳайвонларнинг ўсиши сусаяди, сигирларда сут маҳсулдорлиги ва тирик массасининг камайишига сабаб бўлади оқибатда уларнинг қисир қолишга олиб келади.

Ҳозирги пайтда чорвачилик хўжаликларида кўз касалликлари қорамол, от, туя, қўй, чўчка, қуён, ит, мушук ва бошқа ҳайвонлар орасида кўп учраб, ҳайвонларда кўриш қобилиятини сусайтиради ва натижада ташқи муҳит таъсирларига мослашишига ва ҳаёт учун курашишига кескин халақит беради.

Дунё чорвачилик тажрибаларидан шу нарса аён бўлмоқдаки, йирик шохли ҳайвонлар маҳсулдорлигини оширишда фақатгина наслчилик ишларини йўлга қўйиш билан эришиш мумкин. Аммо, йирик шохли ҳайвонлар бош сонини оширишда наслчилик ишларида айрим камчиликлар мавжуд. Вилоятимизнинг кўп туманларида маҳсулдорлиги паст ҳайвонлар кўпайтирилмоқда. Кейинги ўн йил ичида вилоятга турли мамлакатлардан маҳсулдорлиги юқори бўлган зотли қорамоллар олиб келиниб кўпайтирилмоқда, бироқ айрим ҳолларда олиб келинган ҳайвонларнинг кўпчилиги яхши жиҳозланмаган молхоналарда сақланмоқда. Ветеринария мутахассисларига маълумки, маҳсулдорликни оширишда ҳайвонларни ветеринария санитария қоидаларига жавоб берадиган шароитда сақлаш, озиклантириш катта иқтисодий зарар келтириши мумкин бўлган юқумли ва юқумсиз касалликларини олдини олишда муҳим аҳамиятга эга. Худди шундай катта иқтисодий зарар келтириш мумкин бўлган касалликлардан бири қорамолларнинг кератоконъюнктивит касаллиги ҳисобланади.

К.И.Шакалов (1986) ва А.Ф.Русинов (1987)ларнинг кўрсатишича ёппасига учрайдиган кўз касалликлари (телязиоз, риккециоз) ва бошқа юқумли кератоконъюнктивитлар хўжаликларга катта иқтисодий зарар етказдилар. Улар кўп ҳолларда битта ёки иккала кўзнинг кўриш қобилиятининг пасайишига ёки йўқолишига олиб келиши мумкин. Бунинг таъсирида организм ўсишдан қолади ва унинг маҳсулдорлиги кескин пасаяди (А.В.Лебедев, А.И.Федоров 1989; Е.П.Копенкин, 1988).

Экологик муҳитнинг бузилиши юқори даражада чангланиш, қўёш радиацияси, атроф муҳитнинг чиқиндилар билан ифлосланиши ҳамда ҳайвонларни зич ҳолатда сақлаш, кўп маблағ талаб қиладиган профилактик тадбирларни ўз вақтида ва сифатли ўтказмаслик каби